

suvning tozasini ichadi” maqoli faqat tashabbus va harakat qilish orqali maqsadga erishish mumkinligini ifodalaydi.

Xulosa. Tagma’no ko‘pincha odamlarning chuqur hayotiy tajribalariga asoslanadi va bu tajribalar turli madaniy va ijtimoiy kontekstlarda yanada boyitiladi. Shu sababli, maqollarni to‘liq tushunish uchun ularning tagma’nolarini anglash zarur. Xalq maqollari turli xil madaniy va ijtimoiy kontekstlarda turlicha ma’nolarni berishi, shuningdek, bir butunlikdagi katta diskursiv tuzilmaning bir qismi sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Diskursda maqollarning o‘ziga xos o‘rni va ahamiyatini tushunish uchun ularning qanday ishlatilishi, qanday ma’no berishi va qanday turdagi kommunikativ vazifalarni bajarishi haqida chuqurroq mulohaza yuritish zarur.

Adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.Сафаров Ш. Метафора ҳодисаси талқинига янгича ёндашув имкониятлар. // Хорижий филология, 2020.
- 2.<http://gorniyvestnik.uz/assets/uploads/pdf/2017-yanvar-mart.pdf>.
- 3.Шомаксудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома. – Тошкент, 1990.

М.А.Жо‘rayeva FarDU filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ibroximova Zaynabxon Akbarjon qizi, FarDU magistranti



ABDUQAYUM YO‘LDOSHEVNING QISSACHILIK MAHORATI

<https://zenodo.org/records/19863462>

Annotatsiya: Maqolada Abduqayum Yo‘ldoshevning “Timsohning ko‘z yoshlari”, “Yurakdagi iz”, “Sunbulaning ilk shanbasi”, “Begona shaharning namozshomlari”, “Yulduzlik”ning shafqatsiz to‘lovi”, “Otchopar”, “Shoirning muhabbati” qissalari hamda XXI asr boshlarida yozilgan ayrim asarlar qiyosiy tahlil etish orqali obrazlarning ruhiyati, xarakter xususiyatlari ochib berildi. Tahlil davomida yozuvchilarning biz obekt qilib olgan asarlaridagi shakl va mazmun, obrazlar tizimidagi o‘ziga xoslik, psixologik tasvirlardan foydalanish mahorati masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Kalit so‘zlar: qissa, janr, mahorat, xarakter, syujet, konflikt, kompozitsiya, shakl, mazmun, mavzu, g‘oya.

ПОВЕСТВОВАТЕЛЬНОЕ МАСТЕРСТВО АБДУКАЮМА ЮЛДОШЕВА

Аннотация: В статье раскрываются психологические и характерологические черты персонажей посредством сравнительного анализа рассказов Абдукаюма Юлдошева «Слезы крокодила», «След в сердце», «Первая суббота Сунбулы», «Молитвы чужого города», «Жестокое возмездие звездности», «Пожарный», «Любовь поэта» и некоторых произведений, написанных в начале XXI века. В ходе анализа особое внимание уделялось вопросам формы и содержания, оригинальности системы

образов и мастерству использования психологических образов в произведениях рассматриваемых писателей.

Ключевые слова: рассказ, жанр, мастерство, персонаж, сюжет, конфликт, композиция, форма, содержание, тема, идея.

THE NARRATIVE MASTERY OF ABDUQAYUM YULDOSHEV

Abstract: This article explores the psychological and character traits of characters through a comparative analysis of Abd McKayum Yuldoshev's short stories "Crocodile Tears," "Trace in the Heart," "Sunbula's First Saturday," "Prayers of a Foreign City," "The Cruel Retribution of Stardom," "Firefighter," "A Poet's Love," and several works written at the beginning of the 21st century. The analysis focused on form and content, the originality of the imagery, and the mastery of psychological imagery in the works of these writers.

Keywords: short story, genre, mastery, character, plot, conflict, composition, form, content, theme, idea.

Kirish

O'zbek adabiyotshunosligida qissa janri va uning poetikasi, inson haqidagi qarashlarini yagona konsepsiya doirasida tadqiq etish XX asrning birinchi yarmidan qayta boshlandi va asr o'rtalarida, xususan, akademik Matyoqub Qo'shjonov Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Oybek asarlaridagi yangi inson va uning tasvirida ijodiy fikr yuritdi. Mustaqillik davrida o'zbek adabiyotidagi yangi inson konsepsiyasi haqida so'z yuritgan Azizxon Qayumov, Umarali Normatov, Bahodir Sarimsoqov, Hakim Karimov, Abdug'afur Rasulov, Yo'ldoshxo'ja Solijonov, S.Matyakubov, M.Otajonova, Bahodir Karimov, M.Muhiddinov, Mavlun Boboxonov kabi adabiyotshunoslar o'z tadqiqotlarida yangicha badiiy-estetik tamoyillar asosidagi inson konsepsiyasining turli qirralarini ochishga harakat qilganlar.

Umarali Normatov, Yo'ldosh Solijonov Qozoqboy Yo'ldoshev, Abdug'afur Rasulov, Bahodir Karim Abd McKayum Yo'ldoshevning ayrim qissa va hikoyalarini tahlilga tortib, undagi qahramonlar ruhiyati va jamiyatdagi o'rniga e'tibor qaratganlar. Manzura Jo'rayeva XXI asr zamonaviy o'zbek nasrida yangi inson konsepsiyasining ijtimoiy-psixologik jihatlarini iste'dodli adiblar Abd McKayum Yo'ldoshev va Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalari misolida ochib bergan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

XX asr o'zbek qissachiligida Fitratning alohida o'rni bor. Uning "Hind sayyohi" qissasi asr boshlarida shakllanib kelayotgan o'zbek qissachiligiga tamal toshini qo'ydi. Ushbu asar haqida adabiyotshunos olim: Baxtiyor Nazarov, Yo'ldosh Solijonov va boshqalar o'zlarining fikrlarini bildirishgan. Xususan, Yo'ldosh Solijonovning fikricha: "Fitratning asardan ko'zlagan bosh maqsadi "g'aflat olami"ga bandi xalqning nurga intilishini, ma'rifiy qobiliyatini aks ettirishdir. "Fitrat bu qissasida ham o'zining ilg'or ma'rifatparvarlik g'oyalarini" (B.Nazarov) astoydil ilgari suradi. Qalamga olingan barcha voqea-hodisalar bosh maqsadni asoslashga yo'naltirilgan. Ulamolarni hayoti, madrasa hamda maktab tutimini tasvirlash, bu jabhalarda jiddiy islohotlar o'tkazish orqali turmushni yaxshilash uchun avvalo xalqni ma'rifatli qilish zarurligi g'oyasi ilgari suriladi. Ayni paytda bu xayrli ishlarni amalga oshirishga to'siq bo'layotgan illatlar, kimsalar yozuvchi nigohidan chetda qolmagan".

Haqiqatan ham, Fitrat, adabiyotshunos olim Yo‘ldosh Solijonov e‘tirof etganidek, ma‘rifatparvarlik g‘oyalarining tolmas targ‘ibotchisi edi. U ushbu qissasida Turkiston va Buxorodagi iqtisodiy ahvolni chuqur tahlil etgan, shuningdek, hunarmandchilikni rivojlantirish va boshqa masalalar to‘g‘risida mulohazalarini bayon qilgan. Mahsulot ishlab chiqarishda texnologik jarayonlarni nazarda tutib, uni zamonaviy darajalarga ko‘tarish, bozorni, umuman iqtisodni o‘rganish zaruratini o‘rtaga qo‘yadi. Darhaqiqat, taraqqiyotga erishishda bu eng muhim omillardir. Fitrat shu o‘rinda Ovroq fabrikantlari bilan mahalliy hunarmandlar mehnat tarzini ularning bozordan o‘rin olish masalalarini qiyosiy holda ochib beradi.

Adib asarda Turkiston va Buxoroda hunarmandchilik va dehqonchilik faqat odamlarning qo‘l kuchi bilan amalga oshirilayotganligini tasvirlab korxonalarini texnik jihozlar bilan ishlatish zarurligini ta‘kidlaydi.

Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanidagi murakkab, anchagina mukammal ishlangan obrazlardan biri Miryoqubdir. “Miryoqub – o‘zbek adabiyotiga yangi qahramon sifatida kirib keldi. Uning yangiligi burjua odami ekani bilangina emas, fikrlovchi, zukko odamligi bilan ham belgilanadi”. Miryoqub Akbarali mingboshidan ko‘ra anchagina aqlli va mushohadali ekani ko‘p o‘rinlarda ayon bo‘ladi. Birgina uning “Imperiya nima?” degan savolga javob izlash epizodini olaylik. U bu savolga javobni Noib to‘radan axtaradi. Bizni e‘tiborimizni tortadigan tomoni so‘zning ma‘nosini topish masalasi emas, balki shu muammoga topilgan yechim va undan chiqarilgan xulosadir. Noib to‘raning qo‘rg‘onidagi fahshni ko‘rgan qahramonimiz shunday xulosaga keladi: “imperiya degani shu bo‘lsa, rosa irib ketgan ekan-ku!” Bu esa asardan chiqaradigan eng muhim g‘oyaviy xulosalardan biridir. Bunday fikrlay oladigan Miryoqub esa, davrning muhim topilmasidir.

Yangi o‘zbek adabiyoti xalq va jamiyat hayotining o‘ziga xos badiiy tarixi – yilnomasidir. Uning asosiy tasvir obyektini biz yashab turgan borliq hayot – yangi voqealardir. Shuning uchun ham bu adabiyotning mavzu va mundarijasi yangidir. U bevosita yangi hayotni o‘zida jamlab ko‘rsatdi. O‘z navbatida bu adabiyot hayotdagi barcha muhim voqealarga faol aralashadi va ular haqida fikrlarini obrazli tarzda bayon etadi. Ko‘p qirrali hayotning hech bir muhim voqea-hodisasi yo‘qki, u adabiyotimizda yoritib berilmagan bo‘lsin. O‘z-o‘zidan yangi o‘zbek adabiyotining mavzular ko‘lami va g‘oyaviy mazmuni yangi bo‘lgani kabi uning asosiy qahramonlari ham yangidir. Bu adabiyotning asosiy qahramonlari ko‘p hollarda, ishchilar, dehqonlar, ziyolilar qatlami bo‘ldi.

Natija va muhokama

Abduqayum Yo‘ldoshevning “Begona shaharning namozshomlari” nomli qissasida ham yuqoridagi muammolar ko‘tarilgan. Qissada turli ijtimoiy toifalarning ruhiy, ma‘naviy olami, bir-biriga havasi va so‘ngsiz hasadi, insoniy fazilatlaridan bebahra, o‘ziga bino qo‘yadigan shaxslar va ishbiarmonlar olamidagi ba‘zi korrupsiya va qallobliklarni ayovsiz fosh etadi. Muallif qahramonlar xarakterini va davr voqeligini ichdan yoritadi.

Asar birinchi shaxs “men” tilidan hikoya qilib beriladi. Professor Yo‘ldosh Solijonov aytganlaridek: ““Men” nutq shaklining fazilati shundaki, u asar voqeasi va qahramoni bilan o‘quvchi orasidagi masofani birmuncha yaqinlashtiradi”. Darhaqiqat, voqealar bizning ko‘z

o'ngimizda kino tasmasidek bir-bir namoyon bo'ladi. Hikoyachi-qahramon tinmay mehnat qiladigan, ammo hech ishi yurishmagan, omadsiz, biri ikki bo'lmagan, boyib ketganlarga havasdan ko'ra ko'proq hasad qiladigan, ta'magir va munofiq shaxs sifatida gavdalandirilgan. Rus adabiyotida, xususan, Gogol, Dostoyevskiy asarlarida "men" deb hikoya qiluvchi qahramonlar ijobiy hamda salbiy jihatdan, turlicha munosabatlarda tasvirlangan. O'zbek badiiy nasrida esa Abdulla Qahhor va Shukur Xolmirzayev asarlaridan boshlab, xudbin shaxslar ham asosiy obrazlarga aylandi.

"Begona shaharning namozshomlari" qissasi hikoyachi-qahramon Murodilla tomonidan "O'shanda Politexnika institutida o'qirdim. Guruhimizda Alisher degan bola bor edi. Umuman olganda... yaxshi bola edi: saxiy, mehmondo'st... har yili ko'klamda bizni Chimyonga lola sayliga olib chiqardi. Uning qishlog'i judayam chiroyli, havosi judayam toza, suvi judayam shirin... Qishloq emas, jannatning o'zi" qabilidagi peyzaj tasviri bilan boshlanadi. Shundan so'ng, asar qahramonlaridan yana biri – uning kursdoshi Alisherning maqtanchoqligi, fe'l-atvori, doimo atrofdagilarning diqqat markazida turishni istashi tasvirlanadi. U qishloqqa borishganda ham yo'l boshidan uygacha piyoda yurib qishloq ahli bilan kursdoshlarini birma-bir tanishtirishdan huzurlanadi. Qishloq ahli ularni yaxshi kutib oladi, hurmatlarini joyiga qo'yadi. Keyinchalik ma'lum bo'lishicha, Alisher mening guruhimda (u o'zini guruh sarkoriman degan – G.Q) "ikkita obkomning, uchta raykomning ikki ministrning, o'nga yaqin paxta punkti mudiriyu taftishchilarning farzandlari" [143] o'qiydi deb qishloq ahliga rosa maqtangan bo'ladi. Xususan, oilada kenja farzand bo'lib ulg'aygan, maktabni ham alohida qarovdan oltin medal bilan bitirgan, qishloqda esa o'rnak sifatida ko'rsatiladigan qahramonimiz shuhratparast bo'lishi tabiiydek tuyiladi. "Zo'rdan zo'r chiqibdi", deganlaridek institutda maxsus fizika-matematika maktablarida ta'lim olib kelgan guruhdoshlari oldida "o'rtahol" bo'lib qolgan Alisher anchagacha o'zini kamsitilgandek his qilib yuradi. Nachora, hayot shunaqa beshafqat hammani o'z o'rniga solib qo'yadi. Alisherning fe'l-atvori, yurish-turishini tasvirlash jarayonida xudbinligi, kaltafaxmligi, maqtovga o'chligi singari xarakter xususiyatlari ochilib boradi. Masalan, u o'zini ko'rsatib qo'yish maqsadida guruhdagi bir qizga uchrashuv maktubini yozadi. Qattiq dashnom va tahqirlashlar bilan qiz uni katta auditoriyada keskin rad etadi. Shunda u undan chiroyliroq qiz bilan "yurish"ni yuragiga tugadi. Talabalar o'qishning ikkinchi yili yakunida zavodga amaliyotga yuboriladi. Shunday kunlarning birida Alisher sinfdosh qiz o'rtog'i Mavjudani uchratib qoladi. Muallif sinfdoshlarning bir-birini "Alish" va "Mavju" deya so'zlatishi asarni yanada xalqqa yaqinlashtirgan. Chunki, hammamiz ham sinfdosh do'stlarimiz ismlarini deyarli qisqartirishlar bilan chaqiramiz. Sinfdoshlik yuzasidagi bir ikki uchrashuvga Alisher tomonidan o'zgacha tus berilib, guruhdoshlari orasida maqtanadi. Shunday kunlarning birida Mavjudani begona yigit bilan kinoda, zavodda birga ko'rishadi. Xuddi, qiz o'zlariga tegishli xususiy mulkdek, darhol uni tortib olmoqchi bo'lganni jazolamoqchi bo'lishadi.

Bu yigit asarda "ko'zoynakli yigitcha" deb tasvirlanadi. Fikrimizcha, qissadagi yagona ijobiy deyishga loyiq qahramon ham shu Musurmondur. Xalqimizda yaxshiga kun yo'q, yomonga o'lim degan naql yuradi. Darhaqiqat, ayovsiz kaltaklar zarbidan bir buyragi ezilgan Musurmon hayotda hech yaxshilik ko'rmay, hatto shu holda yaqinlaridan ham

qattiq xo‘rliklar ko‘rib hayot kechiradi.

Achinarli jihati shundaki, bu yigitning majruh bo‘lib qolishiga sababchi bo‘lgan Alisher, Murod, Samad – hammasi qilgan razilona harakatlaridan zig‘ircha afsuslanishmaydi. Muallif shu yerda bu bilagida kuchi bor yigitlarning ma’naviyati anchagina sayoz ekanligini, o‘z o‘rnida fosh etadi.

Yana bir e‘tiborli tomoni, kaltaklangan, xo‘rlangan Musurmonda zarracha bu yigitlarga, oilasiga, shu muhitga qarshilik qilish, isyon ko‘tarish xohishi yo‘q. U militsiya xodimlariga ham “yiqilib” tushdim deydi. Shifoxonga borishdan bosh tortadi. Kaltak zarbidan bir buyragini ezilganini eshitgach esa “bitta buyrak bilan ham yashasa bo‘laveradi” javobini beradi. Bu xildagi xarakter juda kamyob va aslo yaxshilikka xizmat qilmaydi. Xo‘rliklarga bunday javob berish, zo‘rlikni kuchayishiga, zulmni avj olishiga sabab bo‘ladi. Musurmonning tabiati, xatti-harakatlari, aniqrog‘i, harakatsizligi, o‘zini himoya qila olmasligi, qadr-qimmatini, sha‘nini toptalishiga yo‘l qo‘yib berishi asar davomida yetarli darajada asoslanmagan.

Talabalikning suronli davrlarida Alisherdan manfaat ko‘rayotgan sheriklari, u nohaqligini bilsalar ham bu noto‘g‘ri ishga bosh qo‘shadilar. Uni bu yo‘ldan qaytarish o‘rniga, rejalar tuzib yordamlashadilar. Hikoyachi-qahramon Murod hammasi, shunchaki zo‘rakilik yuzasidan (aslida, Mavjudani Alisher sevmaydi – G.Q) ekanligini bilsa-da, bu nohush voqeaning bevosita ishtirokchisiga aylanadi.

Ajablanarli jihati, hikoyachi-qahramon o‘zi munofiq, razil, ta‘magir bo‘la turib birovlarining tubanlik qilishlarini, pastkashliklarini qoralaydi. Balki, u Musurmonga qochish yo‘lagini qoldirgani uchun vijdoni oldida o‘zini aldar, lekin, u baribir haq degani emas, aslo. Insoniyatda bir qusur borki, u qon bilan kirib jon bilan chiqadigan xususiyat, birinchi o‘rinda o‘zini aybsiz deb ko‘rsatishdir. Bu davrlardan davrlarga, insoniyatga o‘tib kelayotgan azaliy haqiqat.

Oradan ko‘p yillar o‘tib, o‘zini tadbirkorlikka urgan Murod bilan “Oftob” firmasining direktori Alisher yana uchrashadilar. O‘tgan vaqt mobaynida Alisher tabiatidagi maqtanchoqlik, shuhratparastlik, laqmalik, maqtovga o‘chlik ortgan bo‘lsa ortganki, sira kamaymagan. U haligacha akasining puli va obro‘si soyasidagi kuchsiz inson sifatida tasvirlanadi. Hikoyachimiz xarakteri ham haligacha o‘sha-o‘sha. Foyda ketidan quvadigan, manfaati uchun yaltoqlanadigan shaxs.

Asarda Najmiddin obrazi ham borki, u har tomonlama yuksak darajada ishlangan. Favqulodda zehn sohibi, ukasining shoshqoloqligidan asar ham yo‘q, o‘zini tutgan va vazmin tabiatli sifatida tasvirlanadi. U hikoyachi ta‘biri bilan aytganda, misli “yengilmas qoya”, “totli toshyong‘oq”. Alisher butunlayicha uning izmida ekanligi bejizga emas.

Do‘stidan manfaat kutayotgan, uning yordamida arzon narxda mingta kerza etik olib, qimmatrog‘iga sotishni mo‘ljal qilib, shu bilan moddiy ahvolini yaxshilashga urinayotgan Murodilla esa uning oldida hali ham yosh bola. Murod aynan shu narsani sezib siqiladi. Najmiddinni tang ahvolda ko‘rishni, tajang qiyofaga solishni istaydi. Shuni o‘ziyoq hikoyachi-qahramon ma’naviyatini sustligini, ezgu amallar unga yot ekanligini, hasaddan nurab borayotgan obrazligini ko‘rsatadi. Taniqli adabiyotshunos Y.Solijonov ta‘kidlashicha: “Odamlar ruhiyatidagi o‘ziga xos xususiy belgilarni tadqiq etishga urinar ekanlar, o‘zbek

yozuvchilari o‘z qahramonlarining atrof-muhitga, narsa-buyumlarga, tabiat hodisalariga qarashlarini ro‘yi-rost ifodalash bilan ularning kimligini va qandayligini ko‘rsatishga erishdilar”.

Qissaning asosiy uzvini Alisher va Murod o‘rtasidagi munosabatlar tashkil qiladi. Uddaburon va qobiliyatli qahramon hech narsaga erisholmay, ishi orqaga ketib, kafeda do‘sti bilan suhbatlashib o‘tirganida arzimagan tushlikka puli yetmasligini o‘ylab qayg‘uradi. Taomilga ko‘ra: “qishloqdan kelgan mehmon shaharlik mezbenni ziyofat qilishi lozim. Bu yozilmagan qonuniyat...”[165]. Tadbirkorning sinchkov nigohi ovqatlanish chog‘ida yana seziladi. U do‘stining boshidan oyog‘igacha kuzatib quyidagi tafsilotlarni beradi: “Rang ko‘r – hol so‘r. Alisherboy semiribdi, yuzi silliqlashibdi, bo‘yi ham uch-to‘rt enlik o‘sib qolganday... timsah terisidan tikilgan yaltiroq, sariq temir bandli tuflisining chap poshnasi sezilarli darajada yemirilibdi. Qimmatbaho shimning sal g‘ijimlanib qolganligi, tizzasi andak ko‘chib turganligi ham Alisherning foydasiga xizmat qilmasdi” [166]. Detektivona tekshiruv natijalariga ko‘ra do‘stining moddiy ahvoli o‘rtacha. Muallif-hikoyachi taqqoslash mobaynida aql jihatidan Alisherdan ancha ustunligi poyafzal kiyish masalasida yaqqol seziladi. Bizning ustamon qahramonimiz terisi yaxshi tuflisi sotib oladida, albatta, poshnasiga nag‘al qoqtiradi. Shunda aslo poyafzalining poshnasi yemirilmaydi. Shu tariqa moddiy ahvoli qandayligini o‘z foydasiga mohirona berkitadi.

Alisher va uning ishbilarmon akasi Murodni yaxshi kutib olishdi, uylariga taklif qilishib yaxshigina mehmon qilishadi, unga yordam berishga ham rozi bo‘lishadi. Ammo, shuncha yordam va mehmondorchilikka qaramay u aka-ukaning boyiganini ko‘rib hasad qiladi. Muallif hasadgo‘y qahramon, ishi yurishmay og‘ir ahvolda qolgan tijoratchi Murodillaning ruhiy ahvolini chuqur yoritadi. U qismatidan noliydi. Ertadan kechgacha shaharma shahar izg‘ib, hatto tuzuk-quruq ovqatlanishga ham pul topolmay oshqozon kasalligini orttirib olgan qahramonimiz uchun Alisherning harakatsizligina shuncha narsaga egaligi erish tuyuladi.

Xulosa

Abduqayum Yo‘ldoshev qissa janrida samarali ijod qilgan. Adibning o‘ndan ortiq qissalarida ijtimoiy hayot muammolari, xalqning yashash tarzi ifodalanadi. “Timsohning ko‘z yoshlari” qissasida Munisa, “Otchopar”da Nozima, “Yurakdagi iz”da Erjigit, “Sunbulaning ilk shanbasi”da oshiqlar qismati real voqealar asosida yoritilgan. Qissa qahramonlari o‘ziga xos, takrorlanmas, har xil qismat egasi. Goh omadli, goh omadsiz, hayotda, jamiyatda o‘z o‘rnini topa olmagan, qalbi dardga to‘lgan insonlar qismati tasvirlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

5. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. T.: - Yangi asar avlodi, 2007.
6. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. T.: - Navoiy universiteti, 2018.
7. Mansurov M. “Judolik diyori”. T.: - Sharq, 2002. 1-kitob
8. Қўшжонов М. Ойбек маҳорати. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти. 1965;
9. Қўшжонов М. Абдулла Қаҳҳор маҳорати. – Т.: Фафур Гулом номидаги адабиёт ва санъат. 1988. бет-232.

10. Қўшжонов М. Ўзбекнинг ўзлиги. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси, 1994. – 136 б.
11. Саримсоқов Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. – Т.: 2004. – Б. 8-9.
12. Каримов Ҳ. Ҳозирги ўзбек насрида ҳаёт ҳақиқати ва инсон концепцияси (70-80-йиллар): Филол. фанлари д-ри ...дисс. – Тошкент, 1994. – 320 б.
13. Расулов А. Бадийлик – безавол янгилик: Илмий-адабий мақолалар, талкинлар, этюдлар. – Т.: Шарқ, 2007. – Б. 298.;
14. Солижонов Й. XX асрнинг 80-90 йиллари ўзбек насрида бадий нутқ поэтикаси. Фил. Фан. д-ри дисс... автореферати. 2002. – Б.41.
15. Матякупов С.Г. Ҳозирги ўзбек ҳикояларида инсон концепцияси ва шахс бадий талқини: Филол. фанлари номз. ...дисс. – Тошкент, 2006. – 130 б.
16. Отажонова М. Иззат Султоннинг сўнгги йиллар драматургиясида замон ва қахрамон концепцияси. Филол. фанлари номз. ...дисс автореф. – Т.: Фан, 2008. – Б. 43.
17. Каримов Б. Абдулла Қодирий: танқид, таҳлил талқин. – Т.: Фан, 2006. – 232 б.
18. Муҳиддинов М. Алишер Навоий ва унинг салфларида инсон концепцияси. Филол. фанлари д-ри ...дисс. автореф. – Тошкент, 1994.
19. Бобохонов М.Р. Ҳозирги ўзбек қиссачилигида психологизм: Филол. фанлари номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2012. – 156 б.
20. Норматов У. Ҳозирги қиссалар поэтикасига доир. Насримиз уфклари. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти. 1974. - Б.45-64.
21. Норматов У. Насримиз анъаналари. -Т.:Адабиёт ва санъат нашриёти. 1978
22. Норматов У. Киссадан хиссалар // Жаҳон адабиёти. - Тошкент.1997
23. Солижонов Й. Кўзгудаги ҳаёт. Т., 2013.
24. Йўлдошев Қ. “Ёниқ сўз”, Тошкент. Янги авлод. 2006 йил. 127-бет.
25. Расулов А. Бадийлик - безавол янгилик. Т., Шарқ н-ш. 2007 йил
26. Карим Б. Рухият алифбоси. – Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2018.